


# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

## *60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

## Toshkent



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil «24  
08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil «25 08 dagi 365 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

**T/r**

	<b>bet</b>
1. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishining umumiy tavsifi .....</i>	4
1.1. <i>Qo'llanish sohasi .....</i>	4
1.1.1. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi .....</i>	4
1.1.3. <i>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....</i>	4
1.2. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi .....</i>	4
1.2.1. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari .....</i>	4
1.2.2. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....</i>	5
1.2.3. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari .....</i>	5
1.2.4. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari .....</i>	6
2. <i>60111600 – O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</i>	8
2.1. <i>Umumiy kompetensiyalar .....</i>	8
2.2. <i>Kasbiy kompetensiyalar .....</i>	9
Bibliografik ma'lumotlar .....	12
Kelishuv varag'i .....	13

## **1. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Ta’lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil etiladi. Bakalavriatura dasturining me’yoriy muddati – 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi Malaka talablarining qo‘llanilishi.**

Malaka talablari **60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolati doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

##### **1.2.1. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari

uchun bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida foydalilaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlarini bilish;

– xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kurslarda, o‘zbek tili va madaniyati markazlarida faoliyat ko‘rsatish;

– vazirlik va tashkilotlar rahbarlarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchi sifatida ishlash;

– O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va boshqa tarmoqlar ilmiy-tadqiqot institutlarida mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish;

– ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

– o‘zbek tili (davlat tili), adabiy o‘qish ta’limi jarayonlari; o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodlari, ta’limning nazariy masalalari; o‘qitish metodikasi; loyihalashtirish asosida o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, mакtabdan tashqari ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni; ta’lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta’limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

– o‘zbek tili: nazariy va amaliy, sinxron, diaxron, ijtimoiy-madaniy va dilektologik aspektlarda; nutq madaniyati va uslubiyati, davlat tilida ish yuritish; zamonaviy o‘zbek tili va yozuvi;

– adabiy o‘qish: badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodi tarixiy va nazariy aspektlarda, jahon adabiyoti;

– mos ixtisoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari jarayoni.

#### **1.2.3. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- pedagogik;
- ilmiy-tadqiqot;
- ma’naviy-ma’rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- axborot-tahliliy faoliyat va shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

#### **1.2.4. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

**60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

##### **Pedagogik faoliyatida:**

- keng dunyoqarashga ega bo‘lgan va mustaqil fikrlaydigan ma’naviy yetuk mutaxassis sifatida shakllanish;
- ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini bilish;
- ta’lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o‘quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o‘quv materiallarini modellashtirish malakasiga ega bo‘lish;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimlari bilan yaqindan tanishgan holda ulardagi o‘qitishning ilg‘or usullarini ta’lim jarayoniga tatbiq qila olish;
- o‘zbek tili va adabiyoti, hozirgi rus tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqr o‘zlashtirish;
- o‘zbek tili va adabiyotini o‘zga tilli mакtablar, professional ta’lim muassasalari, xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o‘zbek tili kurslari, markazlarida o‘qitishning samarali usullarini chuqr egallash va undan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- xorijiy tillar, jumladan, rus, ingliz tillarini chuqr o‘zlashtirish va ushbu bilimlardan kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish;
- pedagogik jarayonning umumiyligini qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida gneseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va integrativ qonuniyatlarining uyg‘unligiga erishish;
- ta’lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija, mazmun, shakl, metod va vosita)ning o‘zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalinish; o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish va o‘tkazish;
- ta’lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarini oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarining milliy mentalitetga mosligini ta’minlash.

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- o‘zbek tili, adabiyoti, qiyosiy tilshunoslikka oid nazariy bilimlarni qo‘llash

orqali ilmiy tadqiqotlar olib borish;

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasiga, shuningdek, tilshunoslikning nazariy masalalariga oid mavzularda tadqiqotlar olib borish;

– kasbiy faoliyat yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy-metodik adabiyotlar va innovatsion loyihalarni o‘rganish;

– internet tarmog‘ida sohaga oid eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

– rus va boshqa xorijiy tillardagi manbalarni o‘qiy olish va tarjima qila olish, o‘z tadqiqoti mavzusiga oid rus, ingliz tilidagi materiallarni amalda qo‘llash;

– ilmiy uslub asoslari hamda ushbu uslubda kasbiy faoliyatga doir ilmiy-metodik maqolalar yozish malakasini egallah;

– mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, ularni tizimli tahlil qilish;

– ilmiy-tadqiqot natijalari va ishlanmalarini amaliyatga tatbiq etish.

#### **Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:**

– pedagogik va kasbiy faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olish, ularni tashkil etish metodikasini egallah;

– ta’lim oluvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga, ommaviy madaniyat ta’siriga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

– globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda milliy til va adabiyotning o‘rnini hamda ta’sirini tushuntira olish;

– vazirlik va idoralarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash malakasiga ega bo‘lish;

– mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalariga doir ishlar olib borish;

– milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni targ‘ib qilish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

– pedagogik va axborot texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini o‘zlashtirish;

– jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish hamda boshqarish;

– kasbiy muammolar yechimini topish malakasiga ega bo‘lish;

– ijrochilar jamoasi ishini tashkil qila olish;

– fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qila olish;

– bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish hamda uni amalga oshirish,

- kasbiy muammolar yechimini topish malakasiga ega bo‘lish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qila olish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qila olish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish hamda uni amalga oshirish, nazorat qilish va natijasini baholash.

#### **Axborot-tahlil faoliyati bo‘yicha:**

- tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimi ishlashi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihalar ishtirokchilariga axborot ta’minotini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- tashkilotni rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxona, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma’lumot to‘plash tizimlaridan foydalangan holda sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash;
- til o‘rgatish jarayonida biznes-rejalarni modellashtirish va biznes jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish;
- xorijiy hamkorlar bilan yozishmalar olib borish, elektron hujjatlar yuritish;
- ijtimoiy tarmoqlarda, OAVda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va obro‘sini oshirish choralarni ko‘rishga oid targ‘ibot materiallarini tayyorlash.

#### ***60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilariga beriladigan bakalavr darajasi kvalifikatsiyasi.***

Quyidagi bakalavr darajasi kvalifikasiyasi beriladi:

- Pedagog, o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili o‘qituvchisi.

#### ***2. 60111600 – O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.***

##### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lish, ularni mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;
- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lish;
- yosh psixologiyasi va fizioloyiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh hamda maktab gigiyenasi bo‘yicha chuqr bilimlarga ega bo‘lish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini

tushunish, xorijiy hamkorlar bilan og‘zaki va yozma muloqot qila olish;

– tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyatni doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilish;

– axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish malakalariga ega bo‘lish, xalqaro yozishmalarni va elektron aloqalarni olib borish, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil ravishda asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o‘z ustida ishslash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish ko‘nikma va qobiliyatlariga ega bo‘lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining ta’lim tizimini takomillashtirishga oid qaror va farmoyishlarini hamda davlat ta’lim standartlarini mukammal bilish;

– o‘qitadigan o‘quv predmeti bo‘yicha darsni tashkil etish metodikasini, pedagogik va kasbiy muloqot nazariyasi va amaliyotini, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini to‘liq o‘zlashtirish;

– xorijiy tillarda muloqot qilish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– tilshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish, tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlar, tizimli yondashuv usullarini lingvovidaktikaga tatbiq etish;

– o‘zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasini yaxshi bilish, bu bilmlardan lingvovidaktik jarayonda foydalana olish;

– davlat tilida ish yuritish va monitoring asoslarini chuqr o‘rganish;

– me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan o‘z professional faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– ta’lim jarayonining dolzarb muammo va masalalariga doir axborotlarni tahlil qilish, ularga o‘z munosabatini bildirish;

– vazirlik va idoralarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalarini chuqr bilish;

– o‘zbek adabiyoti tarixi, ta’limoti va nazariyalari, yirik namoyandalari, namunalarini bilish, bu bilimlarni o‘zga tilli guruhlarda adabiy o‘qish fanini

o'qitishda qo'llash;

– hozirgi o'zbek adabiy tilini yaxshi bilish, jumladan, til iyerarxiyasidagi fonetik-fonologik, leksik, semantik va grammatik sathlarga mansub birliklarning adabiy til uchun me'yor bo'lgan va me'yor bo'lman belgi-xususiyatlarini qiyosan o'rganish, tahlil qilish, bu sohadagi munozarali nuqtalarni aniqlash; hozirgi o'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari, adabiy til taraqqiyotini belgilovchi ichki (lingvistik) va tashqi (ekstralingvistik) omillarni bilish, hozirgi o'zbek adabiy tilining sistemaviy va strukturaviy xususiyatlarini mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– o'zbek tilshunosligining, xususan, fonologiya, grafika, orfografiya, leksikologiya, semasiologiya, morfologiya, sintaksis kabi sohalarining so'nggi yutuqlaridan, shuningdek, jahon va rus tilshunosligidagi muhim ma'lumotlardan o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili fanini o'qitishda foydalana olish;

– o'zbek tili va adabiy o'qish fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlariga asoslangan holda nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlari olib borilishini ta'minlash;

– o'zbek tili va adabiy o'qish fanlarini o'qitish, xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or va samarali usullarni tanlay olish, amaliyatga tatbiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

– o'zbek tili va adabiy o'qish fanlarini o'qitish, xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

– o'zbek tili va adabiy o'qish fanlariga oid nazariy bilimlarini muntazam takomillashtirib borish, mazkur fanlarning dolzarb muammolarini ilg'ay olish, pedagogik faoliyatida ularni ijobjiy hal qila olish;

– ta'lim jarayonida tashkiliy masalalarning, zamonaviy obyektiv baholashning amalga oshirilishini ta'minlash;

– o'quvchilarni fanlar bo'yicha olimpiadalarga, turli musobaqalarga, ilmiy konferensiya va festivallarga tayyorlash, ochiq darslar tashkil qilish, fan to'garaklari ishlariga rahbarlik qilish;

– ilmiy va ijodiy ish yozish malakasini egallash; ta'limiy faoliyatga oid ilmiy-uslubiy maqola va tezislar, ishlanmalar, tavsiyalar tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

– internet tarmog'i orqali o'zbek tili va adabiyoti faniga oid eng yangi ilmiy yutuqlar, ilmiy tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy ilmiy-metodik manbalar bilan muntazam tanishib borish;

– madaniyatlararo kommunikatsiya, ya'ni turli xil madaniyatlarning ikki yoki undan ortiq vakillari o'rtasidagi aloqaning maxsus shakllarini, o'zaro aloqada bo'lgan madaniyatlarning axborot almashinushi va madaniy qadriyatlarni, boshqa millatlarning madaniyati, dini, qadriyatlari, axloqiy munosabatlari, dunyoqarashi va

boshqalarni bilish;

- o‘zga tilli guruhlarda ta’lim oluvchilarning madaniyati, mentaliteti, milliy xarakteri, turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari va boshqalarini ko‘p qirrali bilish, ularga o‘zbek xalqining madaniyatini samarali yo‘llar bilan o‘rgatish;
- o‘zbek tilini dunyo miqyosida targ‘ib qilish malakasiga ega bo‘lish;
- xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kurslarda, o‘zbek tili va madaniyati markazlarida faoliyat ko‘rsatish malakasini egallash;
- xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ommaviy notiqlik qilish, muzokaralar, uchrashuvlar, xalqaro yozishmalar va elektron aloqalarni olib borish salohiyatiga ega bo‘lish;
- kasbiy faoliyatga oid vazifalarni axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda hamda axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda bajara olish.

Bakalavriat dasturini ishlab chiqishda tashkilot bakalavr dasturining ma’lum bilim va (yoki) faoliyat turiga (yo‘nalishiga) yo‘nalishini hisobga olgan holda uni bitiruvchilarning qo‘shimcha kompetensiyalari bilan to‘ldirishga haqlidir.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

OKS 01.040.01

Guruh T 55

### Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni, kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kredit-modul, kasbiy faoliyat turlari, kasbiy faoliyat obyekti, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), o'quv fanlari bloki, profil, kompetensiya, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, virtual elektron bilim manbalari, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, fan ishchi dasturlari, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, monitoring, nazariya, didaktika, lingvovididaktika, hozirgi o'zbek tili, nutq, me'yor, o'zbek adabiyoti, adabiy o'qish, ilmiy maqola, ijodiy ish, veb-texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, yuklama, yuklama hajmi, modellar va modellashtirish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi.

## KELISHUV VARAG'I

### ISHLAB CHIQILDI:

Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent daylat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2021-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

m.o'.



### KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta  
maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy  
ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va  
ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish  
markazi

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim  
markazi

Direktor v.b.

M.Esonov

2021-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

m.o'.



Direktor

Sh.Sattorov

2021-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

m.o'.

